

**MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH UMUMINSONIY MA’NAVIY
QADRIYATLARINING BIR QISMI SIFATIDA**

O‘tayev G‘.G‘.

Toshkent tibbiyot akademiyasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada milliy o‘zlikni anglash umuminsoniy qadriyatlar tog‘risida soz boradi.

АННОТОЦИЯ

В этой статье идет речь национальная самосознания и общечеловеческий ценности.

ANNOTATION

This article deals with national identity and universal values.

Xalqimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng 150 yillik qaramlik davrining asoratlaridan sekin-asta xalos bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda milliy g‘oya tamoyillari asosida milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda rivojlangan fuqarolik jamiyati qurish mezoni bo‘lgan komil avlodni tarbiyalab yetishtirish vazifalari tarixiy xotira bilan uzviy bog‘liqdir. Bunda esa jadidchilik milliy o‘zlikni anglash omili sifatida o‘zining munosib o‘rniga egadir .

Shundan kelib chiqqan holda o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglashida xalqimizning uzoq o‘tmishi, davlatchilik asoslari, madaniyat va ma‘rifati, ma‘naviyati, ilm-fandagi yutuqlari, dini, tili, va boshqalarni mujassamlashtirgan tarixiy xotira muhim tayanch vazifasini bajaradi. Zero Birinchi Prezidentimiz o‘rinli ta‘kidlaganidek, “Madomiki, o‘z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni

yengib bo‘lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur”. Ushbu so‘zlar xalqimizning buguni va buyuk kelajagini qurishda tarixiy xotiraga suyangan holda milliy o‘zligimizni anglashimizni hamda o‘zimiz tanlagan taraqqiyot yo‘limizda olg‘a qadamlar tashlashga undaydi. Shuningdek bu bugungi kunda xalqimiz anglab yetgan eng oliy haqiqat bo‘lmog‘i kerak.

Milliy o‘zlikni anglash har bir millat vakilida eng avvalo o‘zini anglagan insonga xos hislati bo‘lgan o‘z millatiga daxldorlik tuyg‘ularini shakllantirishdagi ma’naviy omil vazifasini bajaradi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov takidlaganidek “Inson o‘zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina, u haqida o‘ylab, mehnat qilib yashagandagina ma’naviyatga tutashadi”.²⁶ Ma’naviyatli insonning mezonlari turli-tuman bo‘lib, ulardan biri milliy g‘urur, iftixor tuyg‘ulariga ega bo‘lish, o‘zida milliylikning ilg‘or qirralarini mujassamlashtirgan insondir. Bunday tuyg‘ular o‘z o‘zidan shakllanmaydi, balki millatning o‘ziga xos urf-odat, an’ana, qadriyat, marosim va udumlari ta’siri ostida shakllanadi. Ularning ta’sir o‘tkazish imkoniyati boshqa omillarnikiga qaraganda ham kuchli bo‘ladi.

Milliy o‘zlikni anglashni tashkil qiluvchi urf, odat, an’ana, qadriyat, marosim, udumlar va kiyimlar millat bilan birga shakllanadi. Ular millatning turmushi, yashash uslubi, mehnat faoliyati, dunyoqarashning ahloqi, turli xodisa va voqealardagi ishtiroki, hayoti tajribasining “maxsuli” hisoblanadi.

Milliy o‘zlikni anglash millatning mentaliteti, ongi, dunyoqarashi, his-xayajoni, ruhiyati qalbidan oziqlandi va ayni paytda ular milliy o‘zlikni anglashda “muhrlandi”, unga milliy xususiyat bag‘ishlaydi.

Milliy o‘zlikni anglashda vorislik kuchli bo‘ladi. U millat vakillarini ajdodlari bilan bog‘lab turadi. Ajdodlar yaratgan milliy va ma’naviy boyliklardan avlodlarni bahramand etadi. Bu o‘z navbatida milliy o‘ziga xoslikning rivojlanishiga va takomillashib borishiga ham ta’sir o‘tkazadi.

²⁶ Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqloli va taraqqiyot yo‘li. - Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 72 b.

Milliy o'zlikni anglash umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarining bir qismi sifatida millatlarning salmog'i va o'rnini ham belgilab beradi. Ana shu o'rin uchun bo'ladigan o'zaro "raqobat"ning amal qilishi esa, milliy o'ziga xoslikning rivojlanishiga milliy taraqqiyot uchun millat vakillarining faolligining oshuviga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Shuningdek, bugungi kunda millatimiz vakillarining milliy o'zlikni anglashimiz tarkibida dinning o'rniga bo'lgan munosabatlari ham muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra mustaqillikdan keyin xalqimizning milliy o'zligini anglashida islom dinining ham o'ziga xos o'rni bor. Shuningdek bu xalqimizning ma'naviy o'zligini anglashining muhim belgilaridan biridir. Shundan kelib chiqqan holda o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashini islom dini bilan uyg'un holatda ekanligini e'tirof etish joiz.

Shu bilan birga bugungi kunda kechayotgan globallashuv, integratsiyalashuv kabi jarayonlar bilan birga tobora rivojlanib, tarqalib borayotgan diniy ekstremizm, terrorizm, fundamentalizm abi oqimlar millat ongini zaharlab, uning milliylikini va milliy o'zligini anglashiga katta to'siq bo'lmoqda. Buni hozirgi axborot sivilizatsiyasi davridagi barcha sohalarda ko'rish mumkin. Globallashuv natijasida davlatlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar rivojlanib, ularning iqtisodiyoti bir-biriga bog'lanib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari va ilm-fan yutuqlari tezlik bilan dunyo bo'ylab tarqalmoqda, shuningdek, sivilizatsiyalar almashinuvi natijasida turli xalqlar qadriyatlari uyg'unlashib, umumiydashib ketyapti. Bundan tashqari globallashuv jarayoni kimlar uchundir bevosita mafkuraviy ta'sir etish quroliga aylantirilgan. Inson ongini egallashga qaratilgan mafkuraviy kurashlar ketayotgan mana shunday xavfli vaziyatda milliy o'zlikni anglash va uni saqlab qolish, keng qamrovli mustaqil fikrlilik, mustahkam va sobit dunyoqarashgina ma'naviy tahdidlarni bartaraf eta olishi mumkin. Chunki inson ongini zabt etish orqali ma'lum ma'noda uni "zombi"ga aylantirib qo'yish mumkin. Bunday ta'sirlar radio, televidenie, matbuot va internet kabilar orqali yuz bermoqda. Bu kabi axborot almashinuvini hech qachon chegaralab yoki ta'qiqlab bo'lmaydi. Shunday paytda ogoh va xushyor bo'lib yashash nihoyatda zarurdir. Negaki, oddiy bo'lib tuyulgan arziyas ma'lumot ham keyinchalik katta muammolarni

keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Hozirgi axborot olamida inson ma'naviyatiga qarshi qaratilgan nosog'lom ma'lumotlar tobora ko'payib boryapti.

Demak milliy o'zlikni anglash har bir millat a'zosiga millat istiqboli hamda havfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni, milliy manfaatlarni himoya qilish, rivojlantirish, milliy birlik va hamjihatlikni ta'minlashdek ma'suliyatni yuklaydi. Birdamlik tuyg'usi boshqa millatlarning manfaatlariga zid kelmaydi. Bir millat o'rtasidagi birlik va birdamlik boshqa millatlar bilan do'stlik mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Uyushgan millatgina boshqa xalqlarni hurmat qilishi, ular bilan teng huquqli munosabatlarda bo'lishi imkoniga egadir. Bundan tashqari inson muayyan etnik birlik va davlatga mansubligini his etsagina, u o'zining millat va vatan oldidagi burchini tushunib yetadi. Bu mezonlarning darajasi va qamrovi miqiyosi cheksiz bo'lib, aynan shu cheksizlik millatni taraqqiyot sari yetaklaydi.

Ma'naviyat va mafkura tushunchalari bir-biridan farq qilsa-da, ammo bu ikki tushuncha bir-birisiz mukammal bo'la olmaydi. Ma'naviyat tushunchasiga mukammal ta'rif berish murakkab masala albatta. Chunki u insonning ichki botiniy dunyosini o'zida aks ettiradi. Millatning yuksak ma'naviyatga ega bo'lishi nafaqat milliy taraqqiyotda balki, umuminsoniy taraqqiyotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek ma'naviyat millatning ichki olami sifatida millatni milliy taraqqiyotning barcha tamoyillarini yuksaltirishga yo'naltiradi. Tadqiqotchilar ushbu tushunchaga turlicha yondoshib, uni turli xil ta'riflashgan. Biroq bu tushunchaga bo'lgan barcha ta'rif va talqinlar mohiyatan bir-biriga yaqin. Xususan ma'naviyat tushunchasiga Sh.Qahhorova shunday izoh beradi: "ma'naviyat" inson anglovining har qanday mazmunini emas, barcha g'oyalarni emas va butun ruhiyatini ham emas, balki inson hayotining ma'no va maqsadini, ya'ni inson nima uchun, nima maqsadda, qanday ishlarni amalga oshirish uchun bu dunyoda mavjudligini ifodalaydigan mazmuninigina qamrab olishi kerak. Shundan kelib chiqsak, u holda ma'naviyat inson hayotining ma'no va maqsadini, uning faoliyat yo'nalishini belgilab beradigan g'oyalar va tuyg'ular majmui ekani haqidagi ta'rifga kelamiz. Olimaning ma'naviyat tushunchasiga bergan ta'rifidan insonning butun hayoti ma'no va maqsadga asoslangan

bo'lishi kerak degan xulosa paydo bo'ladi. Darhaqiqat bugungi kunda rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonlarida inson va uning qadr-qimmatini yo'qolib bormoqda. Inson hayotining ma'naviy globallashuvi, kuchayib, yashashdan maqsad, burch va vazifa kabi ma'suliyatni anglashga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa o'z navbatida xalq, millatning nafaqat milliy mafkuraga bo'lgan munosabatini balki, uni anglab yetish va bu jarayonni ishtirokchisiga aylantirishni ham qiyinlashtirmoqda. Bunga bo'lgan munosabatni shakllantirish uchun inson dastlab yuksak ma'naviyatga qaysiki, nafaqat o'z hayotiga ma'no va mazmun bag'ishlashi balki, o'z xalqi, o'z millatining taraqqiyoti haqida bosh qotirishi, unda mavjud bo'lgan muammo hamda masalalar yechimini yechishda o'zi ham ishtirok etishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng tarixiy xotira va unga bo'lgan munosabat yuksak darajada tiklandi. Bu esa o'z navbatida xalqimizning asrlar davomida saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlari, yuksak ma'naviy va madaniy merosini chuqur o'rganishga, hamda milliy o'zlikni anglashda ana shu boy merosga tayanishni taqozo qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li. - Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 72 b.
2. Otamuratova F. Milliy qadriyatlar va milliy ruhiyat // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2000. – № 3. – B. 39-42.
3. O'tanova U. Milliy o'zlikni anglashning yashovchanlik siri // Tafakkur. – Toshkent, 2006. - № 3. – B. 122-123.
4. Xamraev L. Abadiy qadriyatlar // Inson va siyosat. – Toshkent, – 1991.– № 1. – B. 32-33.
5. Xoshimov Sh. Qadriyat nima degani? (qadriyat so'zining ma'nosi, uning tarixi, ahamiyati xaqida) // Guliston. – Toshkent, – 1995. –№ 1. – B. 4-5.
6. Xonazarov Q. Milliy mentalitet – taraqqiyot omili // Muloqot. – Toshkent, 2000. –№ 3. – B. 2-4.